



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 10 | pp. 317-324 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

VENCHUR KAPITALINI MOLIYALASHTIRISHNI TASHKIL ETISH



Atabayeva K.R.,

Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

Aliyeva G.I.,

Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada venchur kapitali va uni moliyalashtirishning zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda uni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, venchur kapitalini samarali moliyalashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье описывается необходимость венчурного капитала и его финансирования, имеющиеся возможности, социально-экономическая значимость, особенности его организации. Также представлены предложения и рекомендации по эффективному финансированию венчурного капитала.

Abstract. This article describes the need for venture capital and its financing, available opportunities, socio-economic importance, and specific features of its organization. Also, suggestions and recommendations regarding effective financing of venture capital are presented.

Kalit so'zlar. Venchur, venchur kapitali, moliyalashtirish, loyiha, biznes, daromad, innovatsiya, kompaniya.

Ключевые слова. Венчурное предприятие, венчурный капитал, финансирование, проект, бизнес, доход, инновации, компания.

Key words. Venture, venture capital, funding, project, business, income, innovation, company.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarni moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mamlakatimizda moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2018-yil 24-noyabrda PF-5583-son Farmoniga muvofiq hamda respublikada innovatsion loyihalar va startap-ekotizimni har tomonlama qullab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish jarayonini jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 684-son qarori [1] qabul qilindi. Unga asosan,

venchur kapitalini moliyalashtirishni tashkil etish venchur fondi mablag'lari orqali tashkil etiladi.

Darhaqiqat, venchur kapitalini moliyalashtirishni tashkil etish uchun innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni asoslash bilan bog'liqdir. Venchur kapitali ilg'or mamlakatlarda innovatsion iqtisodiy modelni ishlab chiqishning samarali usuli sifatida qaraladi. Shu orqali yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish yirik miqdordagi moliyalashtirishni talab qiladi va yuqori xavf bilan bog'liq bo'ladi. Venchur kapitalining yuqori tavakkal xususiyati uning fan va texnika yutuqlari natijalariga yo'naltirilgan biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'ladi. Venchur kapital mamlakat innovatsion sektorini rivojlantirish uchun "katalizator" bo'lib xizmat qiladi. Buni amalga oshirish uchun venchur kapitalini moliyalashtirishni samarali tashkil etishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Venchur kapitalini moliyalashtirishni tashkil etish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Ba'zi manbalarda "venchur moliyalashtirish" alohida moliyalashtirish shaklini ko'rsatadi. Ya'ni, yuqori risk bilan bog'liq bo'lgan moliyalashtirishni anglatadi, ya'ni riskning yuqori darajasiga ega bo'lgan loyihalarga mablag' kiritishni ifodalaydi [2].

Tadqiqotlarda venchur moliyalashtirish bevosita innovatsion biznes bilan bog'liq bo'lishi asoslanadi. Unga asosan, venchur moliyalashtirish ma'lum turdagi innovatsion biznesni rag'batlantirishda samarali bo'lsa-da, ammo uning ko'lami tobora cheklangan bo'ladi [3].

Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, venchur kapital fondlarida sarmoyadorlar tomonidan olingan jozibador daromadlar kelajakdagi daromadlar uchun favqulodda kutishlarni keltirib chiqardi. Bu esa venchur kapital fondlari menejerlarini tez daromad keltirishini ko'rsatadi [4].

Yana bir tadqiqotlarda venchur kapitalini moliyalashtirishning bevosita tavakkalchilik ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni, venchur kapitali uning yuqori tavakkalchiligi, kutilayotgan foyda olmaslik yoki moliyalashtirilgan loyiha samarasizligi natijasida yo'qotishlar ehtimolini bildiradi [5]. Unga asosan, venchur kapitalini moliyalashtirishda shakllanadigan risk sheriklar o'rtasida taqsimlanadi.

Boshqa bir tadqiqotlarga ko'ra, venchur kapital innovatsion faoliyatini nazorat qiladi va uning bozorga kirishi uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Ya'ni, venchur kapitali tavakkalchilik va yangi yutuqlarda g'alaba qozonishga urinish va kapitalni oshirish istagini belgilaydi [6].

Yana bir tadqiqotlar esa venchur kapitalini moliyalashtirish innovatsion faoliyat rivojlantirish uchun muhim manba ekanligi asoslanadi. Unga asosan, innovatsion rivojlanish bosqichida venchur biznesidan omil sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, uning tarkibiga venchur fondlari, venchur kapitali egalari jamiyati hamda venchur faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik kompaniyalar kiradi [7].

Yana bir tadqiqotlarda venchur kapitali bevosita iqtisodiy faoliyatga xarajatlar qilishni anglatadi. Ya'ni, unga asosan, yuqori texnologiyali tadbirkorlik firmalariga sarmoya kiritish venchur kapitalar texnologik bo'lmagan firmalarga qaraganda xarajatlariga olib keladi [8].

Tahlil va natijalar. Venchur kapitali kichik biznesning o'sishi uchun qo'llab-quvvatlash usuli hisoblanadi. Unga asosan, venchur kapitalini moliyalashtirishga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi:

- **moliyalashtirish orqali** investorlar biznesga pul sarflaydilar. Bu pul mahsulotni ishlab chiqish, xodimlarni yollash yoki kengaytirishga imkon beradi.

- **mulk aksiyalari shaklida** o'z pullari evaziga investorlar kompaniya foizini aksiyalar shaklida oladilar. Ular kompaniyaning muvaffaqiyatida faol ishtirok etadi.

- **puldan tashqari qo'llab-quvvatlash bevosita** investorlarning maslahat, sanoat aloqalari va boshqaruv yordamini taklif qilishlariga imkon beradi. Ushbu holat biznesni tezroq rivojlanishiga imkon beradi.

Venchur kapitalini moliyalashtirish orqali quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

birinchidan, investorlarning naqd pul jamg'armalari to'planishi. Kapitalni to'plash va uni istiqbolli innovatsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirish funksiyasi ixtisoslashgan venchur vositachilar tomonidan amalga oshiriladi.

ikkinchidan, innovatsion korxonalariga boshqaruv ko'nikmalari va biznes tajribasini taqdim etish. Ushbu funksiya innovatsion korxonani moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, moliyaviy konsalting, korporativ strategiya, aloqalar va bozor ma'lumotlarini ishlab chiqishda imkon beradi.

uchinchidan, vositachi sifatida ishtirok etish. Bu bevosita innovatsion korxonalariga investitsiyalarni taqdim etish orqali kapitalni qayta taqsimlashga imkon beradi.

to'rtinchidan, innovatsiyalarni rag'batlantirish. Bu orqali eng maqbul innovatsiyalar tanlanadi.

beshinchidan, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. Venchur kapitali ilm-fan va innovatsion biznes o'rtasida o'zaro aloqani yuzaga keltiradi. Bu esa tadqiqot samaradorligini oshirish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga yordam beradi.

oltinchidan, transformativ funksiya. Buning yordamida mavjud bozorlar o'zgartiriladi va raqobatning yangi shakllari yaratiladi.

yettinchisidan, ijtimoiy funksiya. Unga asosan, innovatsion faoliyat natijasida iste'molchilar tanlovini optimallashtirish va jamiyatning ijtimoiy va ekologik muhiti farovonligining o'sishi ta'minlanadi.

Venchur kapitalini moliyalashtirish turli shakllanish manbalariga ega bo'lib, quyidagi turlarga ajratiladi:

- rasmiy manbalar: venchur fondlari, institutsional moliyaviy investorlar (sug'urta kompaniyalari, pensiya jamg'armalari va boshqalar), nomoliyaviy korporatsiyalar, moliyaviy bo'lmagan ta'sisichilar, milliy va tijorat banklari.

- norasmiy manbalar: shaxslar jamg'armalari (innovator, oilasi va do'stlar moliyaviy mablag'lari), grantlar, bazaviy akademik institutlar, universitetlar va boshqa ilmiy-texnika muassasalari mablag'lari (bino, hudud, asbob-uskunalar va maslahatlar ko'rinishidagi investitsiyalar) va boshqalar.

Venchur kapitalini moliyalashtirishning dastlabki bosqichlarida venchur loyihalar yoki korxonalariga sarmoya kiritiladi. Shunga asosan, investitsiyalar norasmiy manbalari o'z mablag'larini innovatsion korxonalariga, rasmiy manbalar esa boshqaruv uchun

mablag'larni investitsiya qilishga ajratiladi. Natijada, venchur kapitalini mohiyatini aniqlash imkonini beradi.

Venchur kapitaliga oid yondashuvlarni o'rganish uning ko'p qirrali va murakkabligini ko'rsatadi. Venchur kapitali innovatsion kompaniyalarni rag'batlantirishga imkon beruvchi xavfli, uzoq muddatli moliyaviy aktivlar va inson (intellektual) kapital majmuini aks ettiradi. Bu borada mamlakat innovatsion sohasini rivojlantirishda malaka va ta'lim tajribasi muhim rol o'ynaydi. Chunki, intellektual kapitallsiz venchur moliyalashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi. Unda resurslarni oqilona investitsiya qilish va innovatsion korxonaga yo'nalishini belgilash, shuningdek, innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun barcha zarur vositalarni tanlash talab etiladi. Bu holatda intellektual kapital omilini hisobga olgan holda innovatsiyalarga moliyaviy resurslarni sarmoya kiritib, turli yo'qotishlarga duch kelish mumkin.

Venchur kapitali xususiy investorlar va venchur fondlari orqali amalga oshiriladi. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun moliyalashtirish yagona manbai bo'lib ham hisoblanadi. Ularga kredit berishning an'anaviy usullari mavjud bo'lmaydi. Ya'ni, banklar bunday xavfli korxonalariga qarz berishga tayyor bo'lmaydilar yoki faqat moddiy aktivlar bilan ta'minlangan pul berishga rozi bo'ladilar. Ammo, texnologik kompaniyalarda ularning asosiy aktivlari intellektual bo'lib qaraladi [9].

Shuningdek, venchur kapitalini moliyalashtirishda venchur bozoridagi hozirgi holat quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- venchur investitsiyalarni rivojlantirish uchun institutsional vositalarning mavjud emasligi;
- venchur sanoati rivojlanishini tartibga soluvchi tugallanmagan huquqiy tizim;
- innovatsion korxonalariga investitsiya kiritish venchur investitsiyalarning kengayish bosqichida amalga oshirilishi.
- venchur moliyalashtirishning cheklangan manbalari (bank tashkilotlari, pensiya jamg'armalari va sug'urta tashkilotlari kabi xo'jalik yurituvchi subektlarning investitsiya jarayonida faol ishtirok etmasligi);
- siyosiy xalqaro munosabatlarning xususiyatlari.

Shular bilan birgalikda, venchur kapitalini moliyalashtirishda ijtimoiy omilni hisobga olish talab etiladi. Bu esa aholining modernizatsiya darajasini aks ettiradi. Chunki, aholining ijtimoiy-madaniy omilini hisobga olmasdan turib, innovatsion iqtisodiy modelni amalga oshirish ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bu holat mamlakat aholisi madaniyati xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion sohani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan hududlarni monitoring qilishni nazarda tutadi. Shu orqali innovatsion o'zgarishlarga tayyor bo'lgan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va uning yetishmasligi ijtimoiy-madaniy omil darajasining zaifligini ko'rsatadi. Bu holatda ijtimoiy-madaniy soha jamiyat, inson ijodiy kuchlari rivojlanish darajasi hamda moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuini o'z ichiga olgan xilma-xil tushunchaning mazmunini aks ettiradi bilan belgilanadi. Ular tarkibiga bilim yoki faoliyatning istalgan sohasida erishilgan rivojlanish daraja ham kiradi.

Venchur kapitalini moliyalashtirishda venchur investor o'z xohishiga ko'ra mablag'larni tasarruf etishi va yuqori xatarlarni o'z zimmasiga olish erkinligiga ega bo'ladi. Bu holatda banklar biznes modelini qabul qila olmaydilar. Ularning ishlash

tamoyili kreditlash orqali foiz olishga asoslanadi. Shu bois, berilgan kreditlar xavfsiz va ishonchli bo'lishi kerak.

Shular bilan bir qatorda, venchur kapitalini moliyalashtirish uchun venchur investitsiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Bu quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- **mablag' yig'ish.** Bu holatda venchur investitsiyalari erkin moliyaviy oqimi orqali amalga oshirilishi lozim. Bu holatda kapital bir vaqtda bir nechta loyihalarga sarmoya kiritish uchun yetarli bo'lishi kerak. Ammo, venchur loyihalariga mablag'lar ko'proq sarflanadi. Bu holatda venchur kapital qo'yilmalar miqdori umumiy kapitalning 5 foizidan oshmasligi kerak.

- **investitsiya bo'yicha trening.** Venchur sohasida bilim olish uchun doimiy ravishda vaziyatni tahlil qilish talab etiladi. Bu esa zarur materiallarni o'rganish va boshqa investorlar bilan muloqot qilishga asoslanadi.

- **yo'nalishni aniqlash.** Unga asosan, xususiy sarmoyadorlar kichik kapitalni hisobga olgan holda loyihaning asosiy bosqichlariga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Unga ko'ra, sarmoya kiritishni boshlashdan oldin bilimlarni to'plash va biznesga mablag' ajratish zarur bo'ladi. Venchur investitsiyalaridagi birinchi qadamlar tajribali investorlar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

- **loyihani qidirish.** Unga ko'ra, ilmiy-texnik sohadagi korxonalar, puxta o'ylangan biznes-rejaning mavjudligi va loyihani amalga oshirish vaqti bilan belgilanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan loyiha doirasida intellektual mulk huquqlari, patentlar va mualliflik huquqlari sinchkovlik bilan tekshiriladi.

- **shartnoma imzolash.** Unga asosan, investitsiya qilishdan oldin loyiha istiqbollari va maqsadlari o'rganiladi. Muzokaralar bosqichida loyihaning narxini baholanadi. Bu borada investor loyihaning qiymati to'g'risida kelishib olishni ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, venchur kapitalini moliyalashtirish o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Venchur kapitalini moliyalashtirishning mavjud afzalliklari va kamchiliklari

| Afzalliklari | | Kamchiliklari | |
|--|--|------------------------------------|--|
| O'sishni moliyalashtirish | Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni moliyalashtirish, operatsiyalarni kengaytirish yoki yangi bozorlarga chiqish uchun imkon beradi | Kapital oqimini kamaytirish | Ta'sischi investitsiya evaziga mulkchilik va nazorat qismidan voz kechadilar |
| Mutaxassis-larning rahbar bo'lishi | Venchur kapitali kompaniyani muvaffaqiyatga yo'naltirish uchun sanoat tajribasi, strategik maslahat va boshqaruvchanlikni ta'minlaydi | Nazoratni yo'qotish | Venchur kapitali kompaniya qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, bu holat ta'sischi bilan nizolarga olib kelishi mumkin |
| Tarmoq imkoniyatlari | Professional tarmog'iga, jumladan boshqa tadbirkorlar, potensial mijozlar va hamkorlar tarkibiga kirish amalga oshiriladi | Noaniq yuqori taxminlar | Venchur kapitali orqali investitsiyalaridan yuqori daromad kutiladi va natijada daromad olish imkoni bo'lmay qolishi mumkin |
| Ishonchni oshirish | Venchur kapitali firmalar bilan kompaniya ishonchini oshirishi va qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilishi mumkin | Chiqish uchun ta'sir | Venchur kapitali foydaga erishishga qaratilgan bo'lsa-da, ba'zan o'zaro birlashish va sotib olish kabi salbiy ta'sirga olib kelishi mumkin |
| Birgalikda xavfni yengish | Investorlar moliyaviy xavfni baham ko'radilar. Bu esa ta'sischi nisbatan yuqori yukni kamaytiradi | Uzoq jarayon | Venchur kapitalini ta'minlash jarayoni ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Bu esa ba'zi bir tekshiruvlarni o'z ichiga oladi |
| Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash | An'anaviy moliyalashtirishni ta'minlamaydigan xavfli, mukofot loyihalarini | Qisqa muddatli fokus | Ba'zi venchur kapitali uzoq muddatli barqarorlikka nisbatan keraksiz qisqa muddatli yutuqlarni birinchi |

| | | | |
|---|---|-----------------------------|---|
| | <i>rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi</i> | | <i>o'ringa qo'yishi mumkin</i> |
| To'lovga ta'sirining mavjud emasligi | <i>Kreditlardan farqli o'laroq, venchur kapitali muntazam to'lovlar yoki foizlarni talab qilmaydi, ya'ni kapitalga asoslanadi</i> | Ziddiyatli salohiyat | <i>Bu strategiya yoki boshqaruv uslubidagi farqlar venchur kapitali o'rtasidagi ziddiyatlarga olib kelishi mumkin</i> |

Shuningdek, bugungi kunda jahonda quyidagi venchur kapitalini moliyalashtirgan kompaniyalar mavjuddir [10]:

- **Uber:** Ube haydovchilarni yo'lovchilar bilan mobil ilova orqali bog'laydigan sayohat xizmatidir. Uber dastlabki yillarda kapital orqali investorlardan katta mablag'larni olgan. Uberning mablag'lari uning tez o'sishiga yordam bergan. Hozirgi kunda uning filiallari jahondagi 60 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadi.

- **Airbnb:** Airbnb kishilar o'z uylari yoki xonalarini sayohatchilarga ijaraga berishlari mumkin bo'lgan platforma hisoblanadi. Airbnb o'z xizmatlarini kengaytirish uchun Sequoia Capital va Andreessen Horovitsdan katta sarmoya mablag'larini qo'lga kiritgan.

- **Facebook:** Bu tizim Meta sifatida ham tanilgan jahon bo'ylab kishilarni o'zaro bog'laydigan yirik ijtimoiy tarmoq sayti hisoblanadi. Facebook Accel Partners va Piter Tieldan erta mablag' olgan. Ushbu mablag' Facebook tizimiga faol foydalanuvchilarga asoslangan global yetakchiga aylanishiga yordam bergan.

- **Spotify:** Bu foydalanuvchilarga millionlab qo'shiqlarni taklif qiluvchi mashhur musiqiy oqim xizmati hisoblanadi. U Spotify Northzone Ventures va boshqa investorlardan ko'pgina mablag'larni qabul qilib olgan. Ushbu sarmoya Spotify tizimiga faol foydalanuvchilar bilan yetakchi musiqiy oqim xizmatiga aylanishiga imkon bergan.

- **SpaceX:** Bu Elon Musk tomonidan asos solingan aerokosmik ishlab chiqaruvchi kosmik transport kompaniyasi hisoblanadi. SpaceX ta'sischi va Draper Fisher Jurvetsondan venchur kapitalini qabul qilib olgan. Ushbu mablag' SpaceX kompaniyasiga innovatsion raketa texnologiyalarini rivojlantirish va eng muhim bosqichlarga erishishga imkon berdi. Bu xalqaro kosmik stansiya bilan bog'langan birinchi xususiy moliyalashtirilgan kosmik kema bo'lib hisoblanadi.

- **Snap Inc:** Snap Inc. tizimi yo'qolgan xabarlar kabi xususiyatlarga ega bo'lib, o'zining multimedia xabar almashish ilovasiga ega Snapchat bilan mashhur hisoblanadi. Snapchat Lightspeed Venture Partners kompaniyasidan erta sarmoyalarni qabul qilib olgan. Uni moliyalashtirish esa Snapchat dasturi uchun yirik ijtimoiy media platformasiga aylanishiga imkon bergan.

Xulosa va takliflar. Venchur kapitalini moliyalashtirish eng yangi moliyalashtirish shakli bo'lib hisoblanadi. Bu samarali amalga oshirish uchun tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Venchur kapitalini moliyalashtirishni samarali tashkil etish uchun innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish lozim. Bu borada, ya'ni venchur kapitalini moliyalashtirishni tashkil etish yuzasidan turli tadqiqotlar ham olib borilgan. Avvalo, venchur kapitali kichik biznes

samaradorligi uchun ustuvor masala sifatida u o'z funksiyalari va turli shakllanish manbalariga ega bo'ladi. Bu borada venchur kapitalini moliyalashtirish turli bosqich va yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu holatlarda venchur kapitali xususiy investorlar va venchur fondlari orqali amalga oshiriladi. Natijada, venchur kapitalini moliyalashtirishda venchur bozoridagi hozirgi holat hisobga olinadi va ijtimoiy omilni ham alohida hisobga olish talab etiladi. Shu orqali venchur investitsiyalaridan samarali foydalaniladi. Venchur kapitalini moliyalashtirish o'z afzalliklari va kamchiliklariga egaligi uning aniq yo'nalishini aks ettiradi. Bu borada jahonda qator yutuqlarga erishgan venchur kapitalini moliyalashtirgan kompaniyalar mavjud bo'lib, ularning faoliyati venchur kapitalini samarali moliyalashtirishga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, venchur kapitalini moliyalashtirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- venchur korxonalarining moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanish;
- korxonalarining moliyaviy faoliyatini o'z vaqtida va oqilona monitoring qilib borish;
- korxonalarda kadrlarning ilmiy, kasbiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-noyabrdagi "UzVC" milliy venchur fondi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"dagi 684-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/5077677>
2. Cho'lliyev S.R. O'zbekistonda venchur kapitalining shakllanishi. // Scientific progress, Volume 2, Issue 7, 2021. - 543 b.
3. Josh Lerner, Ramana Nanda. Venture Capital's Role in Financing Innovation: What We Know and How Much We Still Need to Learn. - Harvard Business School, 2020. // - p. 9.
4. Dr. Alan S. Gutterman. Venture Capital. A Guide for Sustainable Entrepreneurs. Sustainable entrepreneurship project, 2022.
5. Казакова А.М. Венчурное инвестирование инновационных проектов: современные тенденции его развития на примере Российской Федерации и Соединенных Штатов Америки. // Вестник Евразийской науки, 2018 №5. – с. 3.
6. Колесниченко Е. А., Киселев А. А. Понятие венчурного капитала и его роль в системе инновационного предпринимательства. // Социально-экономические явления и процессы, №2 (010), 2008. - с. 46.
7. Ergashev I.I. Venchur kapitali xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni investitsiyalashning manbai sifatida. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2017-yil. – 2 b.
8. Burchardt J., Hommel U., Kamuriwo D., Billitteri C. Venture capital contracting in theory and practice: Implications for entrepreneurship research. // Entrepreneurship: Theory and Practice, 2016, 40(1), pp. 25-48.
9. <https://journal.tinkoff.ru/guide/venture-invest/>
10. <https://skilling.com/row/en/blog/trading-terms/venture-capital/>

